

INCREASING STUDENTS' INTEREST IN MUSIC LESSONS THROUGH INFORMATION TECHNOLOGIES (ON THE EXAMPLE OF THE CHROME MUSIC LAB ONLINE PROGRAM)

Karimov Saxob Bakhromovich

Lecturer, Department of Music Education,

Jizzakh State Pedagogical University

E-mail: karimovsaxob1@gmail.com

Tel: +998990834259

Abstract

This article examines the issues of using modern information technologies to increase the effectiveness of music culture lessons in secondary schools. The author analyzes the impact of multimedia tools, electronic learning resources and music editing programs on student motivation in the process of music education. The article provides practical recommendations on ensuring interactivity in lessons and developing students' musical and aesthetic thinking through the use of visual and audio materials.

Keywords: Information technologies, music education, multimedia, motivation, electronic resources, interactive methods, music editors, lesson efficiency.

Introduction

"AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNI MUSIQA DARSLARIGA QIZIQISHLARINI OSHIRISH " (CHROME MUSIC LAB ONLINE DASTURI MISOLIDA)

Karimov Saxob Baxromovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

E-mail: karimovsaxob1@gmail.com

Tel: +998990834259

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarining samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Muallif musiqiy ta'lim jarayonida multimedia vositalari, elektron o'quv resurslari va musiqiy tahrirlovchi dasturlarning o'quvchilar motivatsiyasiga ta'sirini tahlil qiladi. Maqolada darslarda interfaollikni ta'minlash, vizual va audio materiallar sintezidan foydalanish orqali o'quvchilarning musiqiy-estetik tafakkurini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, musiqa ta'limi, multimedia, motivatsiya, elektron resurslar, interfaol usullar, musiqiy tahrirlovchilar, dars samaradorligi.

Аннотация

В данной статье исследуются вопросы использования современных информационных технологий для повышения эффективности уроков музыкальной культуры в общеобразовательных школах. Автор анализирует влияние мультимедийных средств, электронных образовательных ресурсов и музыкальных редакторов на мотивацию учащихся в процессе музыкального образования. В статье даны практические рекомендации по обеспечению интерактивности на уроках и развитию музыкально-эстетического мышления учащихся через синтез визуальных и аудиоматериалов.

Ключевые слова: информационные технологии, музыкальное образование, мультимедиа, мотивация, электронные ресурсы, интерактивные методы, музыкальные редакторы, эффективность урока.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli asrda ta'lim tizimini zamonaviy axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Xususan, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga jahon va milliy musiqa tarixini o'rgatishda an'anaviy darsliklar bilan bir qatorda innovatsion texnika vositalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Musiqa tarixi faqatgina sanalar va nomlardan iborat quruq ma'lumot emas, balki jonli audio-vizual jarayondir.

Zamonaviy o'quvchi axborotni asosan vizual va interaktiv tarzda qabul qilishga xoxishi kuchli bo'ladi. Musiqa tarixiga oid darslarda AKT vositalarini qo'llash orqali

biz o'tmishdagi buyuk bastakorlar siymosini gavdalandirish, tarixiy asarlarning tub mohiyatini anglatish va eng muhimi, yosh avlodning san'atga bo'lgan qiziqishini yangi bosqichga ko'tarish imkoniga ega bo'lamiz.

Kompeyuter texnologiyalari asosida olib boriladigan darslarda multemediyali elektron manbalardan foydalaniladi. Ular o'z ichiga tarixiy hamda mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarni qamrab olishlari mumkin. Bu esa o'quvchi va talabalarga informatsion xarakterga ega bo'lgan ko'plab axborotlar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari o'quvchilar bu yerda fandagi eng so'nggi ilmiy-amaliy yangiliklar bilan ham tanishishlari mumkin. Chunki elektron darsliklar an'anaviy bosma nashrlarga nisbatan dinamik va egiluvchanlik harakteriga egadir.

Yuqori ta'minlangan texnologiyalar kompleksi o'zlashtirishda yaxshi natijalarga olib kelishi ma'lum. Informatsion texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanib, ularni o'qitish jarayoniga tadbiq etish, ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Informatsion texnologiyalarga Web sahifalarda ishlash, internet, skaner texnologiyalarini kiritish mumkin. Ularni o'qitishga jalb etish, ta'lim jarayoniga tadbiq qilish esa "pedagogik texnologiya" ni shakllantirishga hissa qo'shadi, yani, information texnologiyalarni ta'limda qo'llab musiqa darslarini o'tishda, murakkab jarayonlarni va mavzularni, an'anaviy sharoitda ko'rish imkoniyati bo'lmagan darslarni o'quvchilarga kompeyuter va qo'shimcha kanallar orqali bilim yetkazib berishga imkoniyat yaratadi. XXI asrga kelib kompeyuter texnologiyalari musiqiy ijodni tahlil qilishga yordam beruvchi o'ziga hos asosiy vositalardan biri bo'lib qolmoqda. U tabiatning turli tovushlarini tahlil qilib ma'lum bir guruhlariga bo'lishga yordam beradi. Bundan tashqari kompeyuter bir ohangdan ikkinchi ohanga o'tuvchi nota matnini ko'chirishdek qiyin ishni ham bajara oladi. Musiqiy ijroni o'hshatib ijro etish imkoniyati paydo bo'ladi. U musiqachilarni umumiy va o'ziga xos hususiyatlarini ajratib olishga ularni ijro uslubini taxlil qilib aniqlashga yordam beradi. Yangi kompeyuter dasturlarida asarlar yaratish bastakorlarni axborot texnologiyalari imkoniyatlariga boshqa nuqtai nazardan qarashga majbur etadi. Chunki kompeyuter tovushlarni yangi usul bilan ishlab chiqaradi va tovushlar yug'indisini boshqaradi, akustik bo'shliqdan foydalanishga va uni nazorat qilishga imkon yaratadi.

Bastakorlarni fikricha yangi dasturlar va tovushlarni sintezlovchi yangi texnika musiqani ilm bilan yaqinlashtiradi, shu bois ilgari ilmiy hisoblangan faoliyatni hozirgi kunda elektron musiqa doirasida o'z imkoniyatlarini sinayotgan bastakorlar amalga oshirayaptilar. Shu tariqa musiqiy ijoddagi muntazam jarayonlar tabiatini aniqlashga imkon yaratildi, yani analitik va sentetik boshlanishlarni taqqoslash, musiqadagi gepotetik alomatlarni ta'riflash, bastakorlarni qaysi biri analitik yoki sintetik qutblarga tortilishini aniqlovchi tavsifnomalarni bo'lishi shular jumlasidandir.

Zamonaviy kompeyuterlar mavjud musiqiy asarlarni turlarga ajrata olsa ham, kompeyuter yangi tovush tuzilmalarini yarata olsa ham, bastakor yoki ijrochi rolini bajarsa ham, unda bir hususiyat, eng asosiy hisoblangan hususiyat ya'ni ijodga ehtiyoj yo'qdir. Hozirgi zamon bastakorlari aytib o'tilgan imkoniyatlarni inobatga olgan holda bir necha amaliy dasturlar majmuasini yaratishmoqda. Bu dasturlar boshlang'ich sinflarda musiqa tinglashni optimal imkoniyatlarini beradi. Kompeyuter nafaqat texnik rivojlanishda, balki shaxsni rivojlantirish va tarbiyalashda katalizator bo'la oladi. Maktab partasida turgan, kompeyuter hayotni ijtimoiylashtirish, madaniyatimizni tez o'sishini asosiy shartidir. Biz faqat uning barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam berishimiz kerak.

Ta'limga g'ayrat bilan yondashish, psixologik- pedagogik tadqiqotlarni istiqbolli yo'nalishini aniqlab beradi, bu yo'nalishlar uzliksiz ta'lim sistemasiga qaratilgan bo'lib, o'quv tarbiyaviy jarayonni yangi mazmun va informatsion texnologiyalarni yaratishga va psixologik ta'minlashga qaratilgan.

Hozirgi kunda bolalarni 2-3 yoshdan informatikaga o'rgatish mumkinligi isbotlab berildi. Yani bu yoshda bolada turli operatsiyalar o'tkazish malakasi shakllanadi. Shuningdek 6-12 yoshdagi bolalarga ta'lim berish jarayonida ham kompeyuter bolani faolligi va ijodiy imkoniyatlarini chegaralanmagan taqdirda foydalanish tavsiya etiladi. Bu o'quv jarayonini uning o'yin faoliyatiga tayanib kattalarning va bolalarning guruh bo'lib ishlash jarayonini rivojlantiradi. Maktab o'quvchisini turli bosqichlarda kompeyuterni qo'llash sharoitida o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim olish uslubi tadqiqotlari asosiy yo'nalishi bo'lib qoladi.

Kichik maktab yoshi. Boshqa asosiy madaniy-texnik ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bir qatorda oddiy kompeyuter savodxonligini yani mashina bilan ishlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish kiradi. Bu ko'nikmalar bolaga klaviatura belgilarini o'rganish, kompeyuterda paydo bo'layotgan elementlarga aniq ta'sir

etish imkonini beradi. O'z harakatlarini dasturlashda nisbatan erkinlikka ega bo'lishi boladan murakkab rejalashtirishlarni va uzun ketma ketliklaarni eslab qolishni talab qilmasligi zarur. Shu bilan birga bola harakati o'z ichiga konkret amaliy harakatlarni ham olishi kerak. Bu yoshga tavsiya etilayotgan kompeyuter dasturlarini mazmuni defferinsiyalangan maktab fanlariga bog'lash tavsiya etilmaydi. U entigral hususiyatga ega bo'lib bolaga, vazfalarni echish jarayonini taminlab berishi kerak. Bu yoshdagi bola uchun, o'quv faoliyatini o'yin shaklida tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bu faoliyat o'qituvchi va o'quvchilarning o'zlarini harakatlariga aniqlik kiritib kompeyuter tarmoqlarini keng qo'llash asosida tuziladi.


Dasturlashga o'rgatish, professional ko'nikmalarni shakllanishi emas, balki ma'lum bir bilimlar doirasini mazmun mantiq asosida tahlil qilish tashkil etadi. O'z navbatida bu bolalarda tasavvur qilish rejalashtirish, tahlil qilish refleksiya kabi mustaqil ta'lim olish va mustaqil faoliyat ko'rsatishga yordam beradi.

Bugungi kunda mana shunday online dasturlardan o'z o'rnida maqsadli foydalanish raqamli ta'lim muhitida musiqa darslarining xam fanlararo integratsiyasini tashkil etadi xam darslarning qiziqarli va mazmunli bo'lishiga yordam beradi. Mana shunday dasturlardan biri Google Creative Lab onlayn dasturi hisoblanadi.

Google Creative Lab onlayn, ta'lim bozorida o'z o'rnini topishi bilan ijodiy sohaga qaratilgan ko'plab yangi dasturlar paydo bo'ldi. Chrome Music Lab ana shunday dasturlardan biri bo'lib, 2016-yilda sinovdan o'tkazilgan va u ochiq kodli platformasi orqali rivojlanishda davom etmoqda. U erkin kirish mumkin bo'lgan veb-texnologiyalar yordamida yaratilgan, ya'ni kod ommaga ochiq va tahrirlanishi va yanada rivojlanishi mumkin. Ushbu dastur musiqa o'rganishni o'quvchilar uchun oson taqdim etadi, resurslarning yetishmasligi tufayli musiqa o'rganishda ko'pincha mavjud bo'lgan to'siqlarni bartaraf etadi.

Xususiyatlari

Chrome Music Labga istalgan qurilmada, kompyuterlardan tortib planshetlar yoki telefonlargacha, shuningdek, Apple yoki Android qurilmalarida kirish mumkin. Buning uchun internetga kirish kifoya va ular dasturni istalgan veb-brauzerda qidirishlari mumkin. Kirish shart emas va undan foydalanish juda oson va intuitiv. Hozirda 13 ta "tajriba" mavjud bo'lib, ulardan sizga turli ritmlar yaratish, o'z kuylaringizni yozish, akkordlarni o'rganish yoki keyinchalik tovushga aylantiriladigan rasm chizish imkonini beradi.



Yuqori maktab yoshi. Insonni professional faoliyati bilan keng ko'lamda tanishish va kompyuter yordamida taqlidiy modellashtirishga ega bo'lgan o'quvchilar inson faoliyatini jamoa va ishlab chiqarishga oid muhimroq, ya'ni ekologik va demografik modellashtirishni, konkret muommolarni matematik modellashtirishni o'tkazish va ularga echim topishni taklif etish, o'zining siyosiy va huquqiy ongini singdirish kabi faoliyatlarni boshqarishni o'rganishlari zarur. Bolalarni rivojlanishida va ta'lim olishida yangi pedagogik texnologiyalari muommosi bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqotlar bo'yicha quydagilarni ishlab chiqish ko'zda tutilgan:

- bolalar rivojlanishida va ta'lim olishida kompyuter texnologiyalarini tuzilish prinsiplari va ularni psixologik-pedagogik asoslari;

- Yangi, fanga oid rivojlantiruvchi o'quv shartlari va kompeyuter vositalarni qo'llashga qaratilgan yangi o'quv fanlarini namunalari;
- Boshlang'ich o'rta va yuqori maktab o'quvchilarini birgalikda va individual faoliyatlarini kompeyuter modellari;
- Turli yoshdagi bolalarni umumiy va mahsus qobiliyatlarini shakllanishi uchun ayniqsa kichik yoshdagi maktab bolalari uchun rivojlantiruvchi kompeyuter o'yinlari;
- Pedagogik dastur vositalarini ishlab chiqaruvchilar uchun tavsiyalar;
- Yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha o'qituvchiga amaliy tavsiyanomalar;
- Bolalarni rivojlanishi, o'quv faoliyatlarini kompeyuterda tuzatishni qo'llash va kompeyuter diagnostikasi yuzasidan maktab psixologlari va psixologik xizmat xodimlariga tavsiyanomalar. Shu tariqa, ko'rsatilgan muammo yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlarni asosiy natijasi bo'lib, psixologik asoslangan ta'lim texnologiyasi bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, musiqa darslarida Chrome Music Lab kabi onlayn platformalardan foydalanish an'anaviy ta'lim usullarini sezilarli darajada boyitadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu dastur vositasida o'quvchilar murakkab musiqiy tushunchalarni (ritm, ohang, garmoniya) vizual va interfaol tarzda oson o'zlashtiradilar.

Bunday dasturlarning afzalligi shundaki, u o'quvchida shunchaki tinglovchi emas, balki ijodkor (kompozitor) pozitsiyasini shakllantiradi. Bu esa darsga bo'lgan ichki motivatsiyani va qiziqishni keskin oshiradi. Axborot texnologiyalarini musiqa ta'limiga tizimli joriy etish o'quvchilarning nafaqat musiqiy savodxonligini, balki ularning zamonaviy raqamli ko'nikmalarini va estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Panjiyev Q. "Musiqa o'qitish metodikasi". – Toshkent, 2020.
3. Ismoilov A. "Ta'limda axborot texnologiyalari". O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
4. Chrome Music Lab rasmiy platformasi: chromeexperiments.com



5. G'afurbekov T. "Musiqqa madaniyati darslarida innovatsion texnologiyalar". – Pedagogik mahorat jurnali, 2022.
6. Bauer, W. I. "Music Learning Today: Digital Pedagogy for Creative Music Making". – Oxford University Press, 2020. (Xalqaro tajriba uchun).
7. Abdurahmonov M. "O'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda kompyuter dasturlarining o'rni". – O'rta maxsus professional ta'lim jurnali, 2023.